

# MARKETING

ILMIY, AMALIY VA OMMABOP JURNAL



RAQAMLI  
MARKETING  
BIZNES  
SAVDO  
INNOVATSIYA  
TARQIQUVCHI  
NATIJASI  
BREMNING

**№ 8 – SON**

**2025-YIL, AVGUST**

9710 xalqaro daraja



№240874



ISSN: 3060-4621



OPEN ACCESS



### JURNALNING MAQSADI

Tadbirkorlik-biznes faoliyatini tashkil etishning marketing asoslarini, yo'nalishlari, echimlari, vositalarini yaratish va rivojlantirish

### ALOQA UCHUN MA'LUMOTLAR

TEL: (97) 783-84-64

VEB-SAYT

[www.marketingjournal.uz](http://www.marketingjournal.uz)

ELEKTRON POCHTA:

[info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)

TELEGRAM BOT:

[@marketinjournalbot](https://t.me/marketinjournalbot)

TELEGRAM KANAL:

<https://t.me/tdiumarketingjournal>

### MUASSIS

“Tadbirkor va ishbilarmon” MCHJ

### JURNALNING ILMIYLIGI

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining **2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

### INDEKSATSIYA



### BOSH MUHARRIR

**Xakimov Ziyodulla Axmadovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent;

**BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:**

**Yusupov Muxamadamin**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor;

### TAHRIR HAY'ATI:

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori;

**Ergashxodjayeva Shaxnoza Djasurovna**, i.f.d., prof., TDIU Marketing kafedrasini mudiri;

**Soliyev Axmadjon Soliyevich**, i.f.d., NaMTI Marketing kafedrasini professori;

**Ikramov Murad Akramovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich**, i.f.d., prof., TDIU Iqtisodiy xavfsizlik kafedrasini mudiri, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi;

**Zarova Elena Viktorovna**, i.f.d., G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti professori, Xalqaro statistika instituti kengashi doimiy a'zosi

**Akramov Tohir Abdirahmonovich**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Ostonaqulova Gulsaraxon Muhammadyoqub qizi**, i.f.d., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Samadov Asqarjon Mishomovich**, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasini professori;

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi**, i.f.n., dots., TDIU Kengash kotibi;

**Sobirov Azizbek Avazbekovich**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Sadikov Shoxrux Shuxratovich**, PhD, dots., TIU Departament boshlig'i;

**Musyeva Shoirazimovna**, i.f.n., SamISI Marketing kafedrasini professori;

**Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li**, PhD., TDIU Marketing kafedrasini dotsenti;

**Djurabayev Otabek Djurabayevich**, i.f.d., TDIU Innovatsion menejment kafedrasini dotsenti;

**Karimova Shirin Zoxid qizi**, PhD, TDIU Axborot texnologiyalari kafedrasini katta o'qituvchisi;

**Mullabayev Baxtiyarjon Bulturbaevich**, DSc., Namangan muhandislik-qurilish instituti dotsenti;

**Fayzullayev Javlonbek Sultonovich**, DSc., TDIU, Yashil iqtisodiyot kafedrasini dotsenti;

**Aliyev Yashnarjon Egamberdiyevich**, DSc., TDIU, "Iqtisodiy va moliyaviy xavfsizlik" kafedrasini professori

**Bobojonov Azizjon Babaxanovich**, DSc, TDIU, "Raqamli iqtisodiyot" kafedrasini dotsenti

**Allayarov Shamsiddin Amanullayevich**, DSc, prof., TDIU, "Savdo ishi" kafedrasini mudiri

**Jumayev Olimjon Sadulloevich**, DSc, Raqobat siyosati va iste'molchilar huquqlari tadqiqotlari markazi direktori

**Maxamadjanov Akbar Maxamadaliyevich**, PhD., TDIU Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari fakulteti dekan muovini

**Eshov Mansur Po'latovich**, i.f.d., prof., Alfraganus universiteti "Menejment va marketing" kafedrasini mudiri

**Kucharov Abrorjon Sobirjanovich**, TDIU biznes boshqaruvi va logistika kafedrasini professori

**Tuychiyev Alisher Jurayevich**, Alfraganus University "Iqtisodiyot" fakulteti dekani professor

**Nazarova Ra'no Rustamovna**, TDIU "Yashil" iqtisodiyot kafedrasini mudiri, Iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Usmonov Bunyod Aktam o'g'li**, PhD, TDIU Moliyaviy tahlil kafedrasini v.b.dotsenti;

**Dehqonov Burxon Rustamovich**, PhD., TDIU Ilmiy tadqiqot faoliyatini tashkil etish bo'limi bosh mutaxassisi;

**Turobova Hulkar Rustamovna**, PhD., BuxDU, Yashil iqtisodiyot va agrobiznes kafedrasini dotsenti;

**Elektron nashr** 352 sahifa. E'lon qilishga 2025-yil 29-avgustda ruxsat etildi

# MUNDARIJA

|                                                                   |            |
|-------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>РАЗВИТИЕ ЦИФРОВОГО МАРКЕТИНГА В МАЛОМ БИЗНЕСЕ .....</b>        | <b>6</b>   |
| <b>Касимова Фатима Тулкиновна</b>                                 |            |
| <b>THE ROLE OF DIPLOMATIC INITIATIVES IN STRENGTHENING INDIA–</b> |            |
| <b>UZBEKISTAN ECONOMIC TIES .....</b>                             | <b>13</b>  |
| <b>Abror Kucharov, Jyoti Meshram</b>                              |            |
| <b>DISTINCTIVE FEATURES OF DATA PROCESSING IN TOURISM AND THE</b> |            |
| <b>POSSIBILITIES OF THEIR USE .....</b>                           | <b>22</b>  |
| <b>Abduvokhidov Abdumalik Makhkamovich</b>                        |            |
| <b>RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA TRANSPORT TIZIMINING</b>        |            |
| <b>IQTISODIY SAMARADORLIGINI BAHOLASH .....</b>                   | <b>32</b>  |
| <b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>                           |            |
| <b>XODIMLAR BILAN HISOB-KITOBBLAR AUDITINI REJALASHTIRISHNI</b>   |            |
| <b>TAKOMILLASHTIRISH.....</b>                                     | <b>40</b>  |
| <b>Ametova Nasiba Danilovna</b>                                   |            |
| <b>UZOQ MUDDATLI AKTIVLARNING NAZARIY MASALALARI .....</b>        | <b>52</b>  |
| <b>Gozieva Mokhira Rustamovna</b>                                 |            |
| <b>ORGANIZATIONAL AND ECONOMIC PECULIARITIES OF PRODUCTION</b>    |            |
| <b>OF BUILDING MATERIALS FROM THE POINT OF VIEW OF</b>            |            |
| <b>INNOVATION .....</b>                                           | <b>60</b>  |
| <b>Igamova Shaxinya Zikrilloyevna</b>                             |            |
| <b>QURILISH TASHKILOTLARINING INNOVASION RIVOJLANISHIDA</b>       |            |
| <b>XODIMLAR FAOLLIGINING AHAMIYATI VA UNI OSHIRISH YO‘LLARI..</b> | <b>70</b>  |
| <b>Karimova Aziza Azamiddin qizi</b>                              |            |
| <b>TASHKILOTDAGI BOSHQARUV TIZIMINING MEHNAT</b>                  |            |
| <b>SAMARADORLIGIGA TA’SIRI.....</b>                               | <b>78</b>  |
| <b>Usmonov Adxamjon A’zamjonovich</b>                             |            |
| <b>OLIY TA’LIM MUASSASALARIDA STRATEGIK RIVOJLANISH</b>           |            |
| <b>LOYIHALARINI BOSHQARISH: LOYIHA BOSHQARUVI YONDASHUVLARI</b>   |            |
| <b>ASOSIDA.....</b>                                               | <b>87</b>  |
| <b>Sobirjanova Oydina Bobir qizi</b>                              |            |
| <b>LOGISTIKA PROVAYDERLIK XIZMATLARI SAMARADORLIGINI</b>          |            |
| <b>OSHIRISHDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO‘LLASH AMALIYOTI</b>     |            |
| <b>96</b>                                                         |            |
| <b>Rajabov Orzujon Mamasoliyevich</b>                             |            |
| <b>TASHQI BOZORLARGA INTEGRATIVASIYALASHUVNING MINTAQAVIY</b>     |            |
| <b>IQTISODIYOTGA TA’SIRI VA UNGA NISBATAN NAZARIY</b>             |            |
| <b>YONDASHUVLAR .....</b>                                         | <b>107</b> |
| <b>Ozodova Farida Zarif qizi</b>                                  |            |

|                                                                                                                                         |            |
|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>KORXONADA ISHLAB CHIQUARISH POTENTIALIDAN FOYDALANISH TAHLILI .....</b>                                                              | <b>112</b> |
| <b>Musayeva Shoirazimovna</b>                                                                                                           |            |
| <b>BUDJET TASHKILOTLARIDA XARAJATLAR HISOBINI TASHKIL ETISH VA YURITISHNI TAKOMILLASHTIRISH (OLIIY TA'LIM MISOLIDA).....</b>            | <b>122</b> |
| <b>Murtozaev Sanjar O'tkir o'g'li</b>                                                                                                   |            |
| <b>FEATURES AND DISADVANTAGES OF IMPLEMENTING THE DIGITAL ECONOMY FOR CONSTRUCTION COMPANIES .....</b>                                  | <b>128</b> |
| <b>Kurbanova Maftuna Lazizovna</b>                                                                                                      |            |
| <b>ОЦЕНКА КОММЕРЧЕСКОЙ НЕДВИЖИМОСТИ В E-COMMERCE-ЭПОХУ: ОПЫТ УЗБЕКИСТАНА И МЕЖДУНАРОДНАЯ ПРАКТИКА .....</b>                             | <b>140</b> |
| <b>Мансурова Сайёра Бахтияровна</b>                                                                                                     |            |
| <b>TEMIR YO'L TRANSPORTI TIZIMINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI TAHLIL QILISH VA BAHOLASH USULLARI .....</b>                              | <b>152</b> |
| <b>Nasrullayev Nurbek Baxtiyarovich</b>                                                                                                 |            |
| <b>KICHIK BIZNESNING SANOAT MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQUARISH JARAYONIDAGI TENDENSIYALARI (XORAZM VILOYATI MISOLIDA) ..</b>                | <b>159</b> |
| <b>Salayev Jasurbek Komilovich</b>                                                                                                      |            |
| <b>KORPORATIV BOSHQARUVDA INNOVATSION USULLARNI JORIY ETISHNING METODOLOGIK ASOSLARI .....</b>                                          | <b>170</b> |
| <b>Ismailov Allayor Rashidovich</b>                                                                                                     |            |
| <b>OLMAZOR TUMANI IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI INNOVATSION BOSHQARUV ORQALI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI VA IMKONIYATLARI .....</b> | <b>181</b> |
| <b>Muminov Fazliddin Xusniddin o'g'li</b>                                                                                               |            |
| <b>ANALYSIS OF INDONESIA'S DUALISTIC FINANCIAL SYSTEM AND ITS POSSIBILITIES FOR USE IN UZBEKISTAN .....</b>                             | <b>193</b> |
| <b>Irgasheva Gulbakhor</b>                                                                                                              |            |
| <b>HUDUDLARNI EKSPORT SALOHIIYATINI OSHIRISHDA MAHALLIY BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH .....</b>                                         | <b>202</b> |
| <b>Bekchanov Davron Masharipovich</b>                                                                                                   |            |
| <b>РАЗВИТИЕ ИННОВАЦИОННОГО МЕНЕДЖМЕНТА В УЗБЕКИСТАНА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛЬНОЙ КОНКУРЕНЦИИ .....</b>                                        | <b>219</b> |
| <b>Азизов Ильдар Рафаэльевич</b>                                                                                                        |            |
| <b>TIJORAT BANKLARIDAN UNDIRILADIGAN FOYDA SOLIG'INING DAVLAT BYUDJETIGA TA'SIRI .....</b>                                              | <b>226</b> |
| <b>Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi</b>                                                                                                  |            |
| <b>ЭТАПЫ РАЗРАБОТКИ ПУТЕЙ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПРЕДПРИЯТИЯ .....</b>                                                                   | <b>232</b> |
| <b>Кучаров Абдор Собиржонович, Бобожонов Азизжон Бабаханович, Хусейнов Рахим Али оглы</b>                                               |            |

|                                                                                                                            |            |
|----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|------------|
| <b>RAQAMLI IQTISODIYOTNING MEHNAT BOZORIGA TA’SIRI VA YANGI KASBLAR .....</b>                                              | <b>240</b> |
| <b>Sadriddinova Xilola Raxmatullayevna</b>                                                                                 |            |
| <b>THE FACTORS THAT INFLUENCE THE PRICING OF A PRODUCT OR SERVICE.....</b>                                                 | <b>247</b> |
| <b>Sa’dullayeva Sayyora Nasillo qizi</b>                                                                                   |            |
| <b>O’ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI: MUAMMOLAR, IMKONIYATLAR VA INNOVATSION YECHIMLAR.....</b>     | <b>253</b> |
| <b>Matkarimov Jahongir Shamuratovich</b>                                                                                   |            |
| <b>XALQARO RAQOBATBARDOSHLIKNING ILMIY NAZARIY ASOSLARI ..</b>                                                             | <b>267</b> |
| <b>Mallaboev Anvarjon Sotvoldievich</b>                                                                                    |            |
| <b>MAHALLIY BUDJET DAROMADLARINI SHAKLLANTIRISHNING ILMIY-NAZARIY ASOSLARI .....</b>                                       | <b>275</b> |
| <b>Sharopov Dilshodjon Raxmatullayevich</b>                                                                                |            |
| <b>ЦИФРОВАЯ РЕВОЛЮЦИЯ И НОВОЕ КАЧЕСТВО МАРКЕТИНГОВЫХ ВОЗМОЖНОСТЕЙ МАЛОГО БИЗНЕСА .....</b>                                 | <b>283</b> |
| <b>Вахабов Асадулло Убайдулло угли</b>                                                                                     |            |
| <b>FINTECH VA BANKLAR O’RTASIDAGI QARAMA-QARSHILIK VA ULARNING INTEGRATSIYALASHUV IMKONIYATLARI .....</b>                  | <b>291</b> |
| <b>Maxmudova Muxlisa Qodirjon qizi</b>                                                                                     |            |
| <b>KORXONALARDA MOLIYAVIY REJALASHTIRISHNI RIVOJLANGAN DAVLATLAR TAJRIBASINING UMUMIY YO’NALISH VA XUSUSIYATLARI .....</b> | <b>298</b> |
| <b>Pardayev Jamshid Muzaffarovich</b>                                                                                      |            |
| <b>SAMARQAND VILOYATIDA XIZMAT KO’RSATISH SOHASINING HOLATI VA SOHANI YANADA RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI.....</b>         | <b>308</b> |
| <b>Normurodov Umidjon Normurod o’g’li, Shadiyeva Lobar Abdurazikovna</b>                                                   |            |
| <b>XODIMLARNI RIVOJLANTIRISH – KADRLAR SIYOSATIDAGI ASOSIY USTUVOR YO’NALISHLARDAN BIRI .....</b>                          | <b>316</b> |
| <b>Sattarov Shuxrat Abug’affarovich</b>                                                                                    |            |
| <b>DAVLAT IQTISODIYOT XAVFSIZLIGINI O’RGANISHNING NAZARIY ASOSLARI .....</b>                                               | <b>323</b> |
| <b>Karimov Javlon Ko’ziyevich</b>                                                                                          |            |
| <b>MINTAQA IQTISODIY TIZIMINI RIVOJLANTIRISHDA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI.....</b>                         | <b>333</b> |
| <b>Mamadjanova Tuyg’unoy Axmadjanovna</b>                                                                                  |            |
| <b>SANOAT KORXONALARI ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARIDA SUN’IY INTELLEKTDAN SAMARALI FOYDALANISH.....</b>                     | <b>344</b> |
| <b>Rixsiboyev Nozimbek Abdurasul o’g’li</b>                                                                                |            |

## TIJORAT BANKLARIDAN UNDIRILADIGAN FOYDA SOLIG'INING DAVLAT BYUDJETIGA TA'SIRI

**Ergasheva Lobar Raxmatulla qizi**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

2-bosqich mustaqil izlanuvchisi

E-mail: [ergashevalobar1@icloud.com](mailto:ergashevalobar1@icloud.com)

### Annotatsiya

Ushbu maqolada tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'ining O'zbekiston Respublikasi davlat byudjeti daromadlari shakllanishiga ta'siri tahlil qilingan. 2010–2024-yillar statistik ma'lumotlari asosida soliq ulushining dinamikasi, prognoz ko'rsatkichlari hamda iqtisodiy samaradorlik omillari o'rganilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, bank foyda solig'ining davlat moliyaviy barqarorligi, byudjet daromadlari diversifikatsiyasi va soliq siyosatini takomillashtirishdagi o'rni ilmiy asoslangan.

**Kalit so'zlar:** tijorat banklari, foyda solig'i, davlat byudjeti, soliq siyosati, moliyaviy barqarorlik.

### Abstract

This article analyzes the impact of profit tax collected from commercial banks on the formation of state budget revenues of the Republic of Uzbekistan. Based on statistical data for 2010–2024, the dynamics of the tax share, forecast indicators, and factors of economic efficiency are studied. According to the research results, the role of bank profit tax in financial stability of the state, diversification of budget revenues, and improvement of tax policy is scientifically substantiated.

**Keywords:** commercial banks, profit tax, state budget, tax policy, financial stability.

### Аннотация

В данной статье анализируется влияние налога на прибыль, взимаемого с коммерческих банков, на формирование доходов государственного бюджета Республики Узбекистан. На основе статистических данных за 2010–2024 годы изучены динамика доли налога, прогнозные показатели и факторы экономической эффективности. Согласно результатам исследования, научно обоснована роль налога на прибыль банков в обеспечении финансовой стабильности государства, диверсификации доходов бюджета и совершенствовании налоговой политики.

**Ключевые слова:** коммерческие банки, налог на прибыль, государственный бюджет, налоговая политика, финансовая стабильность.

### KIRISH

O'zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan moliyaviy-iqtisodiy islohotlarning asosiy yo'nalishlaridan biri soliq-byudjet siyosatini takomillashtirish va davlat byudjeti daromadlarining barqarorligini ta'minlashdan iboratdir. Shu nuqtai nazardan tijorat banklari faoliyati alohida ahamiyat kasb etadi. Chunki moliya bozorida muhim o'rin tutuvchi banklar nafaqat kredit va investitsiya faoliyati orqali iqtisodiy

o'sishga hissa qo'shadi, balki soliq to'lovchi sifatida ham davlat byudjeti daromadlarini shakllantirishda asosiy manbaga aylanadi.

Davlat budjeti daromadlari tarkibida bevosita soliqlar, jumladan foyda solig'i salmoqli o'rin egallaydi. Xususan, tijorat banklari tomonidan to'lanadigan foyda solig'i nafaqat soliq tushumlarining muhim manbasi, balki byudjet barqarorligining asosiy kafolatlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'ining hajmi va dinamikasini tahlil qilish, uning davlat byudjeti daromadlariga ta'sirini ilmiy asosda o'rganish bugungi kunda dolzarb masalalardan sanaladi.

So'nggi yillarda O'zbekistonda soliq siyosati bosqichma-bosqich isloh qilinib, soliq stavkalari maqbullashtirildi, soliq ma'murchiligi soddalashtirildi. Natijada soliq tushumlarining oshishi, soliq bazasining kengayishi va byudjet daromadlarining barqarorlashishi kuzatildi. Shu jarayonda tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'ining ulushi ham izchil o'sib bordi.

### ADABIYOTLAR SHARHI

Bank sektorini soliqqa tortish bo'yicha ilmiy adabiyotlarda ikki asosiy yondashuv mavjud: fiskal — tijorat banklaridan olinadigan foyda solig'ining davlat byudjeti daromad qismini to'ldirishdagi bevosita o'rni, va xulq-atvoriy — soliq stavkalari banklarning kreditlash faolligiga, risk darajasiga hamda investitsion qarorlariga ta'siri. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi tadqiqotlarida banklarga qo'shimcha soliqlar kiritish tashqi ta'sirlarni qoplash va barqarorlikni mustahkamlash vositasi bo'lishi mumkinligi qayd etilgan, biroq bunday choralar joriy etilganda makroiqtisodiy xarajatlar sinchiklab baholanishi zarurligi ta'kidlanadi.

Rivojlanayotgan mamlakatlar misolida olib borilgan empirik tadqiqotlar ikki tomonlama ta'sirni ko'rsatadi: bir tomondan, foyda solig'i byudjetga barqaror tushum keltiradi va banklarning yuqori daromadlilik sharoitida muhim manba hisoblanadi; boshqa tomondan, Borsuk va hammualliflarining izlanishlari ortiqcha soliq yukining real sektor kreditlash hajmini qisqartirishi, tizimli risklarni oshirishi va natijada iqtisodiy o'sish sekinlashuvi orqali byudjet tushumlariga ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkinligini ko'rsatadi.

O'zbekiston sharoitiga oid tahlillar tijorat banklarining soliqqa tortish bazasi xususiyatlari hamda bank tizimi transformatsiyasi sharoitida soliq ma'murchiligi bilan bog'liq muammolarni ochib beradi. Maksudov va boshqa mahalliy olimlar tadqiqotlarida bank foydasidan olinadigan soliq byudjet tushumlarining sezilarli, biroq barqaror bo'lmagan qismini shakllantirishi qayd etiladi. Tushumlarning samaradorligi esa buxgalteriya hisobotining shaffofligi, zararlarni keyingi davrlarga ko'chirish amaliyoti hamda soliq imtiyozlariga bog'liq. Mahalliy tahlilchilar soliq siyosatini banklarni tartibga solish mexanizmlari bilan uyg'unlashtirish va iqtisodiyotga kredit berishni rag'batlantirish zarurligini ta'kidlaydi.


Moliyaviy sektor soliqlari bo'yicha olib borilgan ilmiy izlanishlar bank foydasiga soliqni boshqa vositalar — riskli operatsiyalarga soliq, passivlarga soliq yoki maxsus qo'shimcha to'lovlar bilan birgalikda ko'rib chiqishni taklif qiladi. Jahon banki hujjatlarida va moliyaviy faoliyatni soliqqa tortish bo'yicha xalqaro sharhlarda nafaqat

joriy byudjet samaradorligini, balki kreditlash faolligi, investitsiyalar va moliyaviy barqarorlikka uzoq muddatli ta'sirini ham hisobga olish muhimligi alohida ta'kidlanadi.

Umuman olganda, adabiyotlarda tijorat banklaridan olinadigan foyda solig'i davlat byudjeti uchun muhim daromad manbai sifatida e'tirof etiladi. Biroq uning amaliy samaradorligi soliq siyosati dizayni, ma'murchilik darajasi va bank sektorining reaksiyasiga bevosita bog'liq bo'lib, bu esa O'zbekiston sharoitida mazkur soliqning byudjet tushumlariga va iqtisodiy faollikka ta'sirini chuqur empirik tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

## METODOLOGIYA

Mazkur tadqiqotda quyidagi ilmiy-uslubiy yondashuvlardan foydalanildi. Statistik dinamik qatorlar tahlili orqali 2010–2024-yillar mobaynida davlat byudjeti daromadlari va tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'i hajmi o'rganildi. Taqqoslama tahlil asosida tijorat banklari foyda solig'i tushumlarining umumiy byudjet daromadlaridagi ulushi boshqa soliqlar (aylanmadan olinadigan soliq, jismoniy shaxslar daromad solig'i) bilan solishtirildi.



**1-rasm. O'zbekistonda tijorat banklaridan undiriladigan bevosita soliqlarni byudjetga to'g'ri prognoz qilish va ularning ulushini strategik boshqarish "Yaxlit modeli"<sup>1</sup>**

<sup>1</sup> Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

Ekonometrik yondashuvda regressiya tahlili orqali tijorat banklari foyda solig'ining byudjet daromadlariga ta'siri miqdoriy baholandi. Prognozlash usuli yordamida 2025–2030-yillar uchun foyda solig'i tushumlarining istiqbol ko'rsatkichlari ishlab chiqildi. Tadqiqot uchun asosiy statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi, Davlat soliq qo'mitasi va Markaziy bankining rasmiy hisobotlaridan olindi. Shuningdek, mavzu bo'yicha yagona yaxlit yondashuv asosida sxema tuzildi (1-rasm)

### TAHLIL VA NATIJALAR

2010–2024-yillar davomida davlat byudjeti daromadlari sezilarli darajada oshib bordi. Shu bilan birga, tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'i ham barqaror o'sish tendensiyasini ko'rsatdi. Quyidagi jadvalda ushbu jarayon yoritilgan (1-jadval).

**1-jadval.**

#### 2010–2024-yillarda davlat byudjeti daromadlari va tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'i (mlrd so'mda)<sup>1</sup>

| Yil  | Davlat byudjeti daromadlari | Tijorat banklaridan foyda solig'i | Ulushi (%) |
|------|-----------------------------|-----------------------------------|------------|
| 2010 | 19 850                      | 1 240                             | 6,2        |
| 2012 | 27 600                      | 1 950                             | 7,1        |
| 2014 | 36 800                      | 3 120                             | 8,5        |
| 2016 | 47 500                      | 4 800                             | 10,1       |
| 2018 | 72 300                      | 7 450                             | 10,3       |
| 2020 | 110 200                     | 13 870                            | 12,6       |
| 2022 | 186 400                     | 25 200                            | 13,5       |
| 2024 | 274 423                     | 52 620                            | 19,2       |

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, 2010-yilda bank foyda solig'ining umumiy daromadlardagi ulushi 6,2 %ni tashkil etgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 19,2 %ga yetgan. Bu natijalar shuni ko'rsatadiki, tijorat banklari moliyaviy barqarorlikka erishgan sari ularning byudjetga qo'shayotgan hissasi ham ortib bormoqda. Ayniqsa, 2020–2024-yillar oralig'ida bank foyda solig'i keskin o'sdi.


Prognoz natijalari ham ijobiy dinamikani ko'rsatmoqda. Ekonometrik hisob-kitoblarga ko'ra, 2030-yilga kelib bank foyda solig'i tushumlari 95 trln so'mdan oshishi, uning byudjet daromadlaridagi ulushi 22–23 %ni tashkil qilishi kutilmoqda.

Olingan natijalar bir necha muhim ilmiy va amaliy xulosalarga olib keladi. Byudjet barqarorligi jihatidan tijorat banklari foyda solig'i davlat byudjeti uchun barqaror va ishonchli manba bo'lib bormoqda, bu esa fiskal siyosatning barqarorligini mustahkamlashda muhim rol o'ynaydi. Soliq siyosatini takomillashtirish nuqtai nazaridan 2019-yildan boshlab soliq stavkalarining pasaytirilishi va soddalashtirilgan soliq ma'murchiligi banklarning soliqqa tortilish samaradorligini oshirdi. Bu nafaqat

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

soliq tushumlarini ko'paytirdi, balki banklarning investitsion faoliyatini ham kengaytirdi. Xalqaro tajriba bilan solishtirganda, Xitoy, Janubiy Koreya va Turkiya tajribasi shuni ko'rsatadiki, bank foyda solig'i mamlakat byudjetining muhim tayanchi hisoblanadi. O'zbekistonda ham bu amaliyotni yanada chuqurlashtirish, banklar faoliyatida ochiqlik va shaffoflikni kuchaytirish orqali soliq bazasini kengaytirish mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy ta'sir jihatidan bank foyda solig'i tushumlarining o'sishi davlat byudjetiga qo'shimcha mablag' kiritadi, bu esa ijtimoiy dasturlarni moliyalashtirish, infratuzilma loyihalarini amalga oshirish hamda aholi turmush darajasini oshirishga xizmat qiladi (2-rasm).



**2-rasm. 2025–2030 yillarda tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'i progozi<sup>1</sup>**

Progoz natijalaridan ko'rinib turibdiki, tijorat banklari foyda solig'i 2025–2030 yillarda yiliga o'rtacha 10–12 % ga o'sib boradi. Byudjet daromadlari hajmi ham kengaygani bois ulush nisbatan barqaror bo'lib qoladi (taxminan 18 % atrofida).

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, tijorat banklaridan undiriladigan foyda solig'i O'zbekiston davlat byudjeti daromadlari tarkibida tobora muhimroq o'rin egallamoqda. 2010–2024-yillar oralig'ida bank foyda solig'ining ulushi 6,2 %dan 19,2 %gacha oshgani bu jarayonning amaliy ahamiyatini yaqqol tasdiqlaydi.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi

Ilmiy natijalarga asoslanib quyidagi tavsiyalar ilgari surilishi mumkin. Soliq siyosatini yanada maqbullashtirish va soliq ma'murchiligini raqamlashtirish orqali bank foyda solig'i tushumlarini oshirish zarur. Tijorat banklarining moliyaviy hisobotlarini xalqaro standartlarga moslashtirish orqali soliq bazasini kengaytirish mumkin. Xalqaro ilg'or tajribalar asosida bank soliqlarini diversifikatsiya qilish esa iqtisodiy barqarorlikni ta'minlaydi.

Shunday qilib, tijorat banklari foyda solig'i nafaqat davlat byudjeti barqarorligining kafolati, balki mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim omillaridan biri hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 2- noyabr PQ-3995-son "Soliq siyosatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4037440>
2. O'zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi. (2020). Toshkent: Adolat nashriyoti.
3. O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi. (2024). Davlat byudjeti daromadlari bo'yicha hisobotlar (2010–2024 yillar). Toshkent. <https://www.mf.uz>
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2024). Tijorat banklarining moliyaviy ko'rsatkichlari bo'yicha statistik byulleten. Toshkent. <https://www.cbu.uz>
5. International Monetary Fund (IMF). (2023). Uzbekistan: Staff Report for the 2023 Article IV Consultation. Washington, DC: IMF.
6. World Bank. (2023). Uzbekistan Economic Update: Financing Growth. Washington, DC: World Bank Group.
7. OECD. (2022). Tax Policy Reforms 2022: OECD and Selected Partner Economies. Paris: OECD Publishing.
8. Mishkin, F. S. (2022). The economics of money, banking, and financial markets (13th ed.). Pearson.
9. Allen, F., & Carletti, E. (2021). The roles of banks in financial systems. *Oxford Review of Economic Policy*, 37(4), 607–628.
- Claessens, S., & van Horen, N. (2020). How important are foreign banks for financial development and stability? *Journal of Financial Intermediation*, 42, 100–110.



# Marketing

*ilmiy, amaliy va ommabop jurnali*

**Muharrir:** Xakimov Ziyodulla Axmadovich  
**Ingliz tili muharriri:** Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich  
**Rus tili muharriri:** Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li  
**Musahhih:** Karimova Shirin Zoxid qizi  
**Sahifalovchi va dizaynerlar:** Sadikov Shoxrux Shuxratovich  
Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

**2025-yil, avgust, 8-son**

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta: [info@marketingjournal.uz](mailto:info@marketingjournal.uz)  
Bot: [@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)  
Tel.: +998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



**"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali** 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. ГОСТ 7.56-2002 "Seriya nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlato standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**